# KIMYOGARLAR KUNI —KASB BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!


Farg'onaazot aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz
fargonaazot.uz
info@azot.uz
www.azot.uz
AO Farg'onaazot
t.me/fargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

3-son (1727)
2024-yil,
25-may






## HURMATLI HAMKASBLAR, AZIZ KIMYOGARLAR!

*Bayram munosabati bilan Sizlarni va jamoadoshlarimizni **"Kimyogarlar kuni"** – kasb bayrami bilan chin qalbdan muborakbod etaman!*

*Korxonamiz, mamlakatimiz kimyo sanoati rivojidagi hissangiz, yangidan yangi kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi halol, tinimsiz mehnatingiz uchun o'z minnatdorchiligimni izhor etgan holda, fidokorona faoliyatingizga bundanda ulkan muvaffaqiyatlar hamda yangi yutuqlar tilab qolaman.*

***Sizlarga sihat-salomatlik,** baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, Yangilanayotgan O'zbekistonimizga esa tinchlik va barqarorlik tilab qolaman!*

**Hurmat bilan,**
**"Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov.**

## "KIMYOGARLAR KUNI" BAYRAMI KENG NISHONLANDI

**An'anaga ko'ra, may oyining oxirgi yakshanbasi yurtimizda va hamdo'stlik mamlakatlarida kimyo sohasi mutaxassislarining kasb bayrami sifatida nishonlanadi. "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati kimyogar-xodimlari mazkur sanani tantanali nishonladilar.**









Sizga ma'lumki, kimyogar kasbi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo sohasida faoliyat yuritish har bir insondan aql, ziyraklik, ehtiyotkorlik va tashabbuskorlikni talab etadi.

Kimyo sanoatining rivojlanishi yurtimizda katta islohotlarga sabab bo'lmoqda. Albatta, kimyo sanoatini rivojlanishida barcha kimyo sohasi vakillarining tinimsiz mehnatlari yotibdi. "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatining mahsulotlarini xaridorgirligini ortishi, sifatli, jahon mahsulotlari bilan bemalol bellasha olishi hamda rastalarini bezab kelishi tubida esa xodimlarimizning mehnatlari-yu, rahbarlarimizning mahoratlari yotibdi.

Kimyogar – bu kasbni tanlovchi inson kim? Albatta inson hayotida kasb tanlash muhim va katta mas'uliyat talab etadigan qadam. Kimyogarlik kasbi esa yanada mas'uliyat, qiziqqonlik, yangiliklarni yaratuvchanlik, gohida omadga gohida esa muvaffaqiyatsizlikka erishish demakdir. Demak kimyogar inson-tavakkalchi, qiziqqon va albatta, salohiyatli bo'ladi.

Kimyogarlar ishlab chiqargan mahsulotlar orqali iqtisodiyotning yana ko'plab boshqa sohalari ham ish yuritadi. Xususan, ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlardan foydalanib, dehqonlarimiz mo'l hosil oladi va oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shadi, farmatsevtlar dori-darmonlar tayyorlaydi, sun'iy tolalardan esa turli matolar to'qiladi. Polimer mahsulotlarning esa bugungi kundagi ahamiyatini alohida ta'kidlashga hojat ham yo'q.

Mazkur mas'uliyatli kasb egalari, jamiyatimiz xodimlari bayramimizni quvonch bilan kutib oldilar. O'zbekiston davlat filarmoniyasi Farg'ona viloyat hududiy bo'linmasida tashkil etilgan konsert dasturi avvalida jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov barcha xodimlarni bayram bilan tabriklar ekan, korxonamiz ishlab chiqarishi va mamlakatimiz kimyo sanoati rivojiga ulkan muvaffaqiyatlar, barcha kimyogarlarga oilaviy saodat, barqarorlik hamda salomatlik tiladi.

Bayramning taqdirlash marosimida "Kimyogarlar kuni" munosabati bilan "O'zkimyosanoat" AJ hamda korxona tomonidan bir qancha xodimlarga qimmatbaho sovg'alar va pul mukofoti ulashildi. So'ng konsert dasturi boshlab yuborildi. Unda filarmoniyaning xushovoz xonandalari, go'zal raqqosalari, so'z va hazil ustasi Abdurahmon Siddiqov, o'zbek estradasi xonandasi, bastakor, shoir, O'zbekiston xalq artisti Otabek Muhammadzohidlar xodimlar xizmatida bo'ldilar.

Shuningdek, jamiyat kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan kasb bayramiga bag'ishlanib mini-futbol va voleybol sport musobaqalari o'tkazilgan bo'lib, bayramlar ketma-ketligining bir pallasida musobaqa sovrindorlari qimmatbaho sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlanishdi.

Eslatib o'tamiz, sportning voleybol turi bo'yicha ayollar o'rtasida 3- o'rin "Xlorat-magniy defolianti sexi", 2- o'rin "Zavod boshqarmasi" hamda 1-o'rin "Xo'jalik sexi" jamoalariga nasib etdi.

Erkaklar voleybolida 3- o'rinni "Elektr ta'minoti sexi", 2- o'rinni "Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash sexi" va 1-o'rinni "Mochevina ishlab chiqarish sexi" jamoalari egalladilar.

Mini-futbol turi bo'yicha 3-o'ringa "Ammiak-3 sexi", 2-o'ringa "Zavod boshqarmasi", mutloq g'oliblikka esa "Soda ishlab chiqarish sexi" jamoalari sazovor bo'ldilar.

**E'zozxon ABDULLAYEVA**



# "YANGI O'ZBEKISTONNING IBRATLI OILASI" KO'RIK-TANLOVI

**Mamlakatimiz bo'ylab "15-may Xalqaro oila kuni" nishonlanayotgan bir pallada jamyatimizda "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" shiori ostida ko'rik-tanlov tashkil etildi.**





Oila — jamiyatning eng muhim bo'g'ini, mehr-oqibat, ezgulik va yana bir qator muqaddas, pok tuyg'ularni o'zida mujassam etgan maskan. Har bir insonning shakllanishi oiladan boshlanadi. Tarbiya, urf-odatlar, milliy g'oya, go'zal tuyg'ular ham oilada shakillana boshlaydi.

"Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" ko'rik-tanlovining asosiy maqsadi jamiyat ishlab chiqarish sexlarida mehnat qilayotgan ibratli oilalarni aniqlash va ularning hayotiy tajribalarini yosh oilalarga o'rnak qilib ko'rsatish, milliy va oilaviy qadriyatlar, turmush madaniyatini shakllantirish, oilada mehr oqibat tuyg'ularini ro'yobga chiqarish, ota -onalarning farzandlar tarbiyasi oldidagi mas'uliyatini oshirish kabi ulug' vazifalarni ko'zlagan.

Tanlov nizomiga asosan ishlab chiqarish sexlarida ishlab kelayotgan oilalar ishtirok etishi belgilab qo'yilgan edi. Ishtirokchilar 3 shart bo'yicha bellashdilar. 1-shart "Tanishuv" shartida oilalar o'zlarini tanishtiradilar va mustaqillik yillarida Prezidentimizning rahnamoligida oila va xotin -qizlarni qo'llab-quvvatlash hamda Yoshlarga oid Davlat siyosatining ijrosi, olib borilayotgan islohotlar to'g'risida fikr yuritdilar.

Ikkinchi "Oila ma'naviyati" shartida esa Oila va xotin -qizlarni qo'llab –quvvatlash sohasidagi Prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar, Oila kodeksi, "Bolalar huquqlari va kafolatlari to'g'risida"gi Konvensiya, Mehnat kodeksi, korxona jamoa shartnomasi hamda tashkiliy qo'mita tomonidan tuzilgan mantiqiy savollarga javob beradilar. So'nggi 3-shartda esa ishtirokchlar o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etgan holda "Mening oilam" videoroligini hozirgi kundagi dolzarb masalalar huquqbuzarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, diniy ekstremizm, oiladagi salbiy holatlar, qaynona – kelin munosabatlari, ajralishlarning oldini olish, farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyatsizlikni sahna ko'rinishi orqali yoritib berdilar.

Tadbirni holis o'tishini ta'minlash uchun rahbariyat tomonidan tasdiqlangan hakamlar hay'ati a'zolari baholash me'zoniga ko'ra 5 ballik tizimda baholab bordilar.

Ko'rik-tanlov natijalariga ko'ra, 1- o'rinni 70 bal bilan "Ismoilovlar oilasi", 2-o'rinni 67 bal bilan "Saidovlar oilasi" va 3-o'rinni 64 bal bilan "Shokirovlar oilasi" egallalab, diplomlar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Shuningdek, o'zining faol ishtiroki uchun "Rasulovlar oilasi"ga faxriy yorliq va esdalik sovg'a ulashildi.

**O'z muxbirimiz.**

# INSON AZIZ, XOTIRA MUQADDAS!







"Farg'onaazot" AJda 9 - may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan korxonada halol mehnat qilib o'zidan yorqin iz qoldirgan, hayot yo'lini jamiyat bilan chambarchas bog'lagan, boy hayotiy va mehnat tajribaga ega va albatta, kelajak avlodga o'rnak, ustoz bo'lib kelayotgan mehnat faxriylari bilan birgalikda "Ikki avlod uchrashuvi" tashkil etildi.

Korxonaning barpo etilishida o'zlarini aqli, bilimi, mehnati va umrlarini ayamay, navqiron vaqtlarini jamiyatida o'tkazgan, hozirgi kunda aziz mehnat faxriylarimiz – Abdupatto Solijonov, Muhammad Mahmudov, Jonmirza Arifov, Axmed Mahmudov, Marlen Ilyasov, Gulchehra Yakubova hamda Abdulboqi Artiqovlar uchrashuvga taklif etildilar. Ular xodimlarga o'zlarining mehnat faoliyatlari, korxonaning qurilish tarixi, boshdan o'tkazgan qiyin vaziyatlar, issiq-sovuq kunlar, korxonada ro'y bergan qiziqarli voqealar, kechinmalari to'g'risida so'zlab berdilar. Faxriylar va xodimlar o'rtasida samimiy suhbat qurildi. Shuningdek, yosh xodimlar suhbat davomida o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mehnat faxriylarga yuzlandilar.

"Ikki avlod uchrashuvi" barchaga birdek manzur bo'ldi, yosh xodimlar o'zlariga tegishli ibrat va motivatsiya oldilar. Tadbir so'nggida mehmonlarga jamiyat Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'alar taqdim etildi.

Ta'kidlash lozimki, har vaqt nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ular holidan xabar olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamiyatimizda an'anaga aylangan. Yurtimizning bugungi tinch-osoyishta hayoti uchun jasorat ko'rsatib fido bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etish esa eng oliy vazifamiz deb belgilangan. Shunday ekan Biz, yosh avlod ustoz-xodimlarimizni e'tirof etib, ularning malakalariga tayangan holda to'g'ri umr va mehnat yo'lini tutmog'imiz darkor.

**E'zozxon ABDULLAYEVA.**

# "ODOB- AXLOQ NAMUNAVIY NIZOMI, ICHKI MEHNAT TARTIB QOIDALARIGA QAT'IY AMAL QILISHNI TA'MINLASH USTIVOR VAZIFA" MAVZUSIDAGI TAShRIFLAR DAVOM ETMOQDA

**Joriy yilning 20-may kunidan boshlab jamiyatning barcha sexlari bo'ylab 2024- yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da "Farg'onaazot" AJ sexlarida odob- axloq namunaviy Nizomi, ichki mehnat tartib qoidalari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish bo'yicha tashriflar boshlab yuborilgan.**

Tashriflar davomida korxonada faoliyat yuritib kelayotgan ayollar bilan yaqindan ishlash, ularning ma'naviy, psixologik saviyasini oshirish, jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlari uchun ularni qo'llab-quvvatlash va korxona "Odob axloq kodeksi"ni bandlarini yanada chuqurroq tushintirish bo'yicha seminar treninglar va suhbatlar tashkil etilib kelinmoqda.

Shuningdek, korxona psixologi o'z kasbiga bo'lgan qiziqishni oshirish, stress holatlarda o'zini boshqarish va jamoadagi psixologik holatni muvofiqlashtirish bo'yicha treninglar o'tkazmoqda.

Tasdiqlangan jadvalga asosan tashriflar hozigi kunga qadar Markaziy kimyo laboratoriyasi, Sinov laboratoriyasi, Elektr jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash, Ammiak ishlab chiqarish, Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash hamda Soda ishlab chiqarish sexlariga amalga oshirildi.

Tashriflarda xodimlarga jamiyatda tasdiqlangan Odob-axloq Kodeksi, Ichki mehnat tartib qoidalari, Mehnat kodeksi, jamoa shartnomalari bo'yicha ma'lumotlar berib o'tilmoqda. Yig'ilishlar yakunida xodimlar savol va takliflari yozib olinmoqda.

**O'z muxbirimiz.**

# METROLOGIYA BOSHQARMASI TARKIBIDA QO'RIQLASH-YONG'INDAN SAQLASH SIGNALIZATSIYA UCHASTKASI FAOLIYATI



**Korxona hududidagi bino va inshootlarning yong'inga qarshi signalizatsiya Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlari va Metrologiya boshqarmasi tarkibida Qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiya uchastkasi tashkil etilgan bo'lib, hozirda uning faoliyati jadal ketmoqda.**

**Bugungi kunda tarkibiy bo'linmalardan, kelib tushadigan buyurtmalar asosida "Avtomatik yong'in o'chirish uskunalari, yong'in-qo'riqlash signalizatsiyasi va xabar berish vositalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda yong'in o'chirgichlarni texnik ta'mirlash va qayta zaryadlash, shuningdek, bino va inoshootlarni yog'och-tom konstruksiyalarni yong'inga qarshi kimyoviy suyuqlik bilan qayta ishlov berish" xizmatlar yo'lga qo'yilgan.**





Aytib o'tish lozimki, 2021-yilning 13-dekabridan 17-dekabrigacha va 2022-yilning 7-fevralidan 11-fevral sanasigacha bo'lgan muddatda "Avtomatik yong'in o'chirish uskunalari, yong'in-qo'riqlash signalizatsiyasi va xabar berish vositalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish" yo'nalishi bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi va 6 nafar xodimga sertifikatlar olindi. Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish uskunalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatiga litsenziya olish bo'yicha Adliya vazirligining davlat xizmatlari agentligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan olib borilgan muzokaralar o'zining ijobiy samarasini berdi. Natijada 2022-yilning 1-mart sanasida Favqulodda vaziyatlar vazirligidan 022451-sonli tasdiqnoma olindi.

Shuningdek, qo'riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatiga litsenziya olish yuzasidan Adliya vazirligining davlat xizmatlari agentligi va O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasidan 2022-yilning 7-mart sanasida 022959-sonli tasdiqnoma olindi.

Uchastkaning nizomi va lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqilgan. Yong'inga qarshi avtomatika vositalari, signalizatsiya tizimlari bo'yicha joriy ta'mirlash ishlari bajarilmoqda, jumladan, Ammiak-3, AS-72M, Mochevina i/ch sexi, Elektr ta'minoti sexlarining maxsus yong'in o'chirish tizimlari, 1- va 2- sanoat maydonlaridagi sexlarning avtomatik yong'indan xabar berish vositalari va tizimlari tekshirib sozlandi va hozirda XMD va Bug'-qozon sexlarida maxsus yong'in o'chirish tizimlari va avtomatik yong'indan xabar berish vositalari sozlash-ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Uchastkada kukunli va uglekislotali yong'in o'chirgichlarni qayta zaryadlash ishlari yo'lga qo'yilgan.

Kelgusida uchastkada yong'inni o'chirish (suvli, gazli, kukunli va boshqa) qurilmalarni montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, «muhandislik» (elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya) yo'nalishi bo'yicha ham ishlar olib borilishi rejalashtirilgan.

**Q. UMAROV,**
**"Farg'onaazot" AJ TJABT va Metrologiya boshqarmasi QYOSS uchastkasi boshlig'i.**

# TABIIY ZAHIRALAR HAMMANING MULKI!

**Tabiiy zahiralarni kelajak avlodga yetarli darajada qoldirishning yagona chorasi uni tejash, cheklashdir. Bugungi kunda dunyo aholisining to'rtdan uch qismi ekologik qarzdor. Bu vaziyatda Siz, Biz nima qila olamiz? Bugungi maqolamizda mazkur dolzarb mavzu bo'yicha tafakkur, mulohaza qilib ko'ramiz.**



Shunchaki ishxona va uydagi elektr zaxiralarini tejash, qurilmalar ishlatilmaganda elektr simini tarmoqdan uzish kabi har birimiz uchun manfaatli va umuman qiyin bo'lmagan holatlar bilan biz kelajak avlodga tabiiy resurslarni milliy meros qilib qoldirishimiz mumkin. Ko'pchilik elektr tarmog'iga ulangan qurilmalar qancha elektr energiyasini sarflashini bilmaydi. Masalan, o'chiq televizorlar, kompyuterlar, zaryadlangan telefonlar. Ular sarflaydigan elektr energiyasi miqdori oz, biroq uzoq muddat ulangan holatda turganda bunday deb bo'lmaydi.

**Kundalik odatlaringizni o'zgartiring!** Energiyani tejash uchun, kerak bo'lmaganda, chiroqlarni yoki qurilmalarni o'chiring. Elektr choynakda faqatgina o'zingiz uchun zarur bo'lgan suvni qaynating. Kompyuteringizda kutib turish funksiyasini faollashtiring. Konditsioneringizni ishga tushirganingizda, oynalarni yopib quying. Jahon tashkilotlari hisobotlaridan birida "Agar biz dunyo tabiiy zahiralardan hozirgi darajada foydalanishda davom etsak, kelgusi o'ttiz yil mobaynida hayotiy ehtiyojlarimizni qondirish uchun yana bir sayyoraga barobar zahira kerak bo'ladi", deyilgan edi. Biz yana bir sayyoraga barobar zahirani to'play olmaymiz. Ko'pchilik bo'lib qila oladigan yagona choramiz uni tejash va asrab-avaylab ishlatishdir.

Ayni shu maqsadda, yurtimizda energoresurslardan oqilona foydalanishni taminlash maqsadida joriy yilning 16-aprelida "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 204-son Hukumat qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan energoresurslar bilan bog'liq bir qator yangiliklar joriy qilinmoqda, xususan:

1. Maishiy iste'molchilar uchun ijtimoiy me'yorlar belgilandi.

Qaror bilan, 1-maydan boshlab maishiy iste'molchilar (aholi xonadonlari) uchun quyidagicha ijtimoiy (bazaviy) me'yorlar kiritiladi:

elektr energiyasi – oyiga 200 kv. soatgacha;

tabiiy gaz (mart–oktabr oylarida) – oyiga 100 kubometrgacha;

tabiiy gaz (noyabr–fevral oylarida) – oyiga 500 kubometrgacha.

2. 2024-yil 1-maydan yangi tariflar kuchga kiradi. Elektr energiyasi uchun maishiy iste'molchilar uchun tariflar (1 kv. soat uchun, oyiga):

— 200 kv. soatgacha – 450 so'm;
— 201 kv. soatdan 1000 kv. soatgacha – 900 so'm;
— 1001 kv. soatdan 5000 kv. soatgacha – 1350 so'm;
— 5001 kv. soatdan 10 000 kv. soatgacha – 1575 so'm;
— 10 001 kv. soatdan keyin – 1800 so'm.

Tabiiy gaz uchun isitish mavsumida – noyabr-fevral oylarida aholi xonadonlari uchun tabiiy gaz tariflari (1 kubometr uchun, oyiga):

— 500 kubometrgacha – 650 so'm;
— 501 kubometrdan 2500 kubometrgacha – 1500 so'm;
— 2501 kubometrdan 5000 kubometrgacha – 1950 so'm;
— 5001 kubometrdan 10 000 kubometrgacha – 2275 so'm;
— 10 001 kubometrdan keyin – 2600 so'm.

Mart–oktabr oylarida:

— 100 kubometrgacha – 650 so'm;
— 101 kubometrdan 2500 kubometrgacha – 1500 so'm;
— 2501 kubometrdan 5000 kubometrgacha – 1950 so'm;
— 5001 kubometrdan 10 000 kubometrgacha – 2275 so'm;
— 10 001 kubometrdan keyin – 2600 so'm.

3. Aholiga foydalanilgan gaz va elektr haqidagi ma'lumotlar har oyda yuboriladi. 2024-yil 1-iyundan foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha oylik ma'lumot "bazaviy me'yor" va undan ortiq hajmlar kesimida iste'molchilarga yuboriladi.

4. Ehtiyojmand oilalarga me'yordan ortiq ishlatilgan elektr va gaz uchun pul beriladi. Isitish mavsumida (noyabr – fevral oylarida) ehtiyojmand oilalarga quyidagi kompensatsiyalar beriladi:

– noyabrda 270 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam;

– elektr va gaz bo'yicha bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi:

gaz uchun – oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 250 kub metrgacha;

elektr uchun – oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 150 kVt soatgacha.

Ehtiyojmand oila sifatida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" tizimiga kiritilgan oilalar tushuniladi. "Mahalla yettiligi" tomonidan Yagona reestrga kirmagan ehtiyojmand oilalarning esa qo'shimcha ro'yxati shakllantiriladi.

Tuman (shahar) hokimliklari ham mahallalar kesimidagi ehtiyojmand oilalar qo'shimcha ro'yxatiga o'zgartirish kiritishi mumkin.

5. Ehtiyojmand oilalar kompensatsiya olish uchun "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaat qilishi kerak.

Kompensatsiya oluvchi ehtiyojmand oilalar noyabr – mart oylarida (har oyning 15-sanasigacha) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari yoki mahallalarda faoliyat yurituvchi ijtimoiy xodimlarga murojaat qiladi.

Bunda, arizada pasport ma'lumotlari, abonent raqami va telefon raqami ko'rsatiladi. Ariza berilgan oyning 27-sanasigacha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ bilan birgalikda o'rganiladi.

O'rganish natijasi asosida kompensatsiya pullari ariza berilgan oydan keyingi oyning 27-sanasigacha ehtiyojmand oilalarning plastik kartasiga o'tkazib beriladi.

6. Plastik kartasi bo'lmagan ehtiyojmand oilalarga karta bepul ochib beriladi.

**Fahriddin MAMAJONOV,**
**Farg'ona viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Alohida bataloni komandiri**
**Foydalanilgan manba: Davlatobod tumani, Adliya bo'limi rasmiy sayti**



# ПОДРОБНОСТИ КОНКУРСА «ОБРАЗЦОВАЯ СЕМЬЯ»

**Трудно недооценить роль семьи в обществе. Именно в ней закладывается основа личности каждого человека, преемственность всех последующих поколений. Семья – это социальный институт, в котором ребенок раскрывает природой заложенный потенциал и определяет свое место в жизни, учится добру, справедливости и созиданию. От личностных характеристик каждого человека, его вклада в созидательный процесс напрямую зависит дальнейшее динамичное развитие всего общества. В нашей стране органы государственной власти с особым вниманием относятся к становлению семейных отношений, как гаранту стабильности и благополучия.**




Как и в большинстве стран мира в Узбекистане 15-мая широко отмечают Международный день семьи, по традиции в этот день проводятся конференции, круглые столы, дискуссии, форумы и культурно-массовые мероприятия.

Одно из таких мероприятий прошло 15 мая в АО «Farg‘onaazot». Конкурс открыл со вступительной речью председатель правления Дилшод Эркинович Маннонов. В своей речи Д.Э. Маннонов рассказал о проводимых реформах под руководством Главы нашего Государства, направленных на укрепление института семьи. В конце своего выступления пожелал удачи участникам конкурса. На состоявшемся конкурсе принимали участие семьи, которые неразрывно связали свою судьбу с нашим предприятием, за период своей дружной семейной жизни воспитали детей и стали образцом подражания для молодых заводчан. В конкурсе «Образцовая семья» приняли участие семья Саидовых из цеха Централизованного ремонта электрооборудования, семья Шокировых из Хозяйственного цеха, семья Исмоиловых и семья Расуловых из цеха Хлорат-магниевого дефолианта.

Конкурс был организован отделом по социальному развитию и работе с общественностью при активном содействии общественных организаций предприятия. Судейство в конкурсе осуществляло авторитетное жюри из числа работников предприятия. Необходимо отметить, что данный конкурс проходил в три этапа. По правилам конкурса в первом этапе каждая семья должна была провести знакомство со своей семьёй путём подготовленной презентации. На этом этапе представители каждой семьи в интересной форме рассказывали об истории создания своей семьи, о достижениях, также ими были предоставлены слайды из фото и видео материалов семейного архива.

На втором этапе конкурса под названием «Семейная духовность», участники ответили на вопросы по билетам касательно указов, решений по поддержке семьи, Семейного кодекса, Конвенции о правах и гарантиях детей, Коллективного договора, Трудового кодекса, составленные оргкомитетом конкурса.

В третьем этапе конкурса «Свободная тема» участники продемонстрировали свои артистические способности и таланты, предоставив на суд жюри сцены из семейной жизни, на котором осветили актуальные вопросы предотвращения разводов, семейных взаимоотношений, обычаев и пороков, а также родительской ответственности в воспитании детей.

В конкурсе приняли участие 4 семьи. Выступления участников были оценены членами жюри по 5-бальной системе. По результатам подсчета баллов 1-место было присуждено семье Исмоиловых из цеха ХМД, 2-место было присуждено семье Саидовых из цеха ЦРЭО, 3 место поделили семья Шокировых из Хозяйственного цеха и семья Расуловых из цеха ХМД. Победители и активные участники конкурса «Образцовая семья» были награждены почетными грамотами и ценными подарками профсоюзного комитета предприятия.

**Беседу провёл
Отабек Бегиджанов**

# ПОМНИТЕ, ЧТО БОЛЕЗНЬ ЛЕГЧЕ ПРЕДУПРЕДИТЬ, ЧЕМ ЛЕЧИТЬ, необходимо только вовремя прийти к врачу.

**«Болезнь легче предупредить, чем лечить»
Древне греческий философ, целитель Гиппократ**

**В акционерном обществе «Farg‘onaazot», с целью улучшения организации труда, разработаны положения и мероприятия по созданию безопасных и комфортных условий труда, так на базе предприятия уже долгие годы успешно функционирует Лечебно-оздоровительный диагностический цех. В данном медицинском учреждении работникам и их родственникам оказывается квалифицированная медицинская помощь, что в свою очередь является одной из форм социальной поддержки работников.**

Как известно, квалифицированные врачи ЛОДЦ ежегодно проводят на заводе периодические медицинские осмотры работников. В рамках данной газетной публикации редакция газеты «Кимёгар» решила осветить данный вопрос и обратилась за информацией заместителю главного врача ЛОДЦ Садиковой Сураё Эргашевне.

**Сураё Эргашевна, скажите пожайлуста, почему необходимо проходить периодические медицинские осмотры?**

—В современном мире, где каждый стремится к здоровому и активному образу жизни, профилактические медицинские осмотры выступают как ключевой элемент заботы о собственном здоровье. Эти осмотры не только помогают предотвратить развитие многих заболеваний, но и играют важную роль в раннем выявлении уже существующих проблем, когда лечение будет наиболее эффективным и менее затратным.

Профилактика заболеваний — это всегда предпочтительнее, чем их лечение. Регулярные профилактические осмотры позволяют выявить заболевание на самой ранней стадии, когда шансы на полное излечение значительно выше. К тому же, профилактика обходится намного дешевле, чем лечение запущенных стадий заболеваний, которые могут потребовать дорогостоящего медицинского вмешательства, включая хирургию и длительную реабилитацию.

Статистические данные показывают, что регулярные медицинские осмотры способствуют увеличению продолжительности и улучшению качества жизни. Например, раннее выявление таких заболеваний, как гипертония и диабет, может помочь избежать развития серьезных осложнений, таких как сердечно-сосудистые заболевания и почечная недостаточность.

Добавлю медицинские осмотры предоставляют целый ряд преимуществ для поддержания здоровья и благополучия на долгие годы.

**Как проходит в нынешнем году медицинский осмотр на предприятии?**

—В 2024 году данное мероприятие проходит с 15 апреля по 11 июля на территории первой и второй промышленной площадки предприятия. Хотелось бы отметить что для удобства работников предприятия врачи будут проводить осмотр в здании медпункта в соответствии с утверждённым графиком согласно которого работники структурных подразделений общества должны будут приходить на медосмотр.

В медицинском пункте, где созданы все условия для полноценного медицинского обследования, также в осмотре задействован передвижной рентгеновский аппарат.

**Какие медицинские специалисты будут привлечены для проведения медосмотров?**

—Необходимо отметить что для диагностики здоровья работников предприятия привлекаются такие высококвалифицированные специалисты как: терапевт, хирург, ЛОР врач, окулист, дерматолог, невролог, гинеколог и стоматолог.

В этом году плановую медицинскую диагностику должны пройти 3629 работников предприятия, отмечу что в прошлом году было охвачено 3320 человека. За истекший период с начала медицинского осмотра, прошли обследование 2013 работника из них 955 женщин. В основном это работники цеха первой промышленной площадки и завода управления. По результатам осмотра 20 работникам было рекомендовано стационарное лечение, а более 100 работникам амбулаторное лечение.

И в конце хочу сказать проходить на регулярной основе медосмотр и консультирования у врачей является залогом уверенности в здоровом и счастливом будущем, поэтому прошу работников предприятия со всей серьёзностью отнестись к вопросу прохождения данного мероприятия.

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОШЁЛ ТЕХНИЧЕСКИЙ ОСМОТР АВТОТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

**Сегодня нельзя представить себе работу АО «Farg‘onaazot» без Автотранспортного цеха, ведь именно грузовые автомобили данного структурного подразделения осуществляют грузоперевозки. Имеющиеся в наличии грузовые краны задействованы на различных ремонтных и грузоподъёмных работах, а пассажирские автобусы осуществляют перевозку работников предприятия. Так что ритмичная работа всего предприятия во многом зависит от того в каком техническом состоянии находится обширный парк автотранспортных средств АТЦ.**

В соответствии с Законом Республики Узбекистан «О безопасности дорожного движения» и постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан, а также в соответствии с установленным Положением, правилами и перечнем, ежегодно на предприятии проводится проверка транспортных средств с их обязательным техническим осмотром. В этом году техосмотр в АО «Farg‘onaazot» прошёл 4 мая. На котором обширный автопарк АТЦ, состоящий из 115 автотранспортных средств, а это 19 легковых автомобиля, 22 автобуса, 29 специальных транспортных средств, 34 грузовых автомобилей, 1 микроавтобус, 5 мототранспортных средств и 5 полуприцепов были подготовлены для прохождения технического осмотра.



В государственном техническом осмотре принимали участие руководители и ответственные сотрудники предприятия, в частности начальник Управления Логистики А. Исмоилов и заместитель начальника управления Н. Абдукадиров, менеджер К. Рузиев, начальник АТЦ А. Абдуллаев и инженер безопасности дорожного движения С. Хожиматов.

Принимавшие участие в государственном техническом осмотре инспектора безопасности дорожного движения Д. Кодиров и А. Эгамбердиев рассказали водителям о требованиях по безопасному управлению транспортными средствами и ознакомили их с изменениями и дополнениями вступившим в силу в 2024 году в законодательные акты касающиеся безопасности дорожного движения.

Комиссия, проводившая государственный технический осмотр в соответствии с требованиями, осуществила сверку автотранспортных средств на соответствие техническому паспорту, проверила укомплектованность машин сертифицированными аптечками и огнетушителями с действующим сроком годности, а также наличием знака аварийной остановки. Комиссией не было выявлено неисправности автомобилей касающейся тормозной системы и осветительных приборов.

Все автотранспортные средства предприятия прошли государственный технический осмотр и были признаны годными для дальнейшей эксплуатации.

# ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАСТКА ОХРАННО-ПОЖАРНОЙ СИГНАЛИЗАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЯ

**На сегодняшний день в составе управления автоматизированными системами управления технологическим процессом и метрологии создан участок охранно-пожарной сигнализации, сфера деятельности которого ответственность за исправную пожарную сигнализацию зданий и сооружений на территории предприятия.**



Кроме этого на основании поступающих от структурных подразделений заказов ведется работа по таким направлениям как монтаж, наладка, ремонт средств автоматического пожаротушения, устройств пожарной сигнализации и оповещения, а также техническое обслуживание огнетушителей их ремонт и перезарядка, помимо этого, предоставляются услуги по обработке деревянных кровельных конструкций с применением огнестойких химических жидкостей.

# ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЯ ЯВЛЯЕТСЯ АКТУАЛЬНОЙ ЗАДАЧЕЙ

**В “Год поддержки молодежи и бизнеса” в АО “Farg‘onaazot” реализуются меры, направленные на достижение положительных изменений в повседневной жизни трудового коллектива.**



Так в целях повышения правового сознания и правовой культуры работников предприятия, были организованы посещения цехов, на котором приняли участие советник председателя правления по духовности и просвещению Эъзоза Абдуллаева, начальник юридического отдела Насиба Махкамова, психолог предприятия Наргиза Эргашева, ведущие специалисты отдела по социальному развитию и связям с общественностью и профсоюзного комитета предприятия.

Согласно утверждённому графику первым пунктом визита, стала центральная химическая лаборатория, далее цех «Аммиак-3», цех централизованного ремонта электрооборудования и цех Соды.

В рамках организованного круглого стола в трудовых коллективах цехов была проведена разъяснительная работа по соблюдению требований положения делового этикета, правил внутреннего трудового распорядка, состоялись беседы, на котором были подняты животрепещущие вопросы касающиеся улучшения условий труда.

Также в ходе состоявшегося визита психологом предприятия были проведены тренинги по повышению интереса к своей профессии, самоконтролю в стрессовых ситуациях и координации психологического состояния в коллективе.

В конце встречи были взяты на заметку вопросы и предложения работников цехов, требующих отдельного рассмотрения.

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОШЁЛ СЕМИНАР НА ТЕМУ: «ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН И ПРОФИЛАКТИКА РАКА»

**В нашей стране общественному здоровью всегда уделялось особое внимание. В частности, актуален вопрос профилактики заболеваний, встречающихся среди населения и относящихся в мировой медицине к опасному типу заболеваний.**



В любом обществе женщины считаются творцами будущего поколения, и в этом отношении становится важным обеспечение профилактики их здоровья.

Исходя из этого, в актовом зале АО «Farg‘onaazot», 23 мая текущего года, был организован семинар на тему «Охрана здоровья женщин и профилактика рака» с участием акушер-гинеколога лечебно-оздоровительного диагностического цеха Дилором Ташпулатовой. Проходивший через Интернет – платформу Zoom, видеоконференция вызвала живой интерес у работников предприятия.

На семинаре присутствовали работницы отделов и цехов предприятия.

Дилором Ташпулатова, рассказал о формах рака, наиболее распространённых среди женщин, о факторах возникновения и на что следует обратить внимание с целью их профилактики.

В ходе выступления врачом также было отмечено, что рак груди — это женское заболевание, в большинстве случаев оно диагностируется слишком поздно из-за недостаточного внимания к его симптомам. Доктор также подчеркнул, что болезнь не возникает внезапно и можно самостоятельно выявить ее на ранних стадиях, для чего необходимо серьезно отнестись к ее первичным признакам.

В ходе семинара, специалист также подробно рассмотрел вопросы, связанные с профилактикой этого заболевания.

В конце семинара состоялась беседа с женщинами на котором были даны ответы на все интересующие их вопросы.

УВАЖАЕМЫЕ КОЛЛЕГИ!

# С ДНЁМ ХИМИКА, УВАЖАЕМЫЕ РАБОТНИКИ

# АО «FARG‘ONAAZOT»

**От имени руководства АО «Farg‘onaazot» и от себя лично поздравляю вас с профессиональным праздником – Днём химика!**

**По случаю праздника искренне поздравляю Вас дорогие коллеги, ветераны завода и всех кто причастен химической отрасли с «Днем химика» – профессиональным праздником!**

**Выражаю благодарность за ваш вклад в развитие нашего предприятия и химической промышленности нашей страны, за добросовестный и неустанный труд по производству химической продукции, пусть успех, удача и новые достижения всегда сопутствует Вам в вашем нелёгком труде.**

**Желаю Вам и вашим семьям крепкого здоровья, благополучия сил и смелости для новых начинаний. Искренне желаю мира и спокойствия в ваших домах, стабильности в нашем обновляющемся Узбекистане!**

**С уважением,**
**председатель правления АО «Farg`onaazot» Дилшод Маннонов.**





# НА ПРЕДПРИЯТИИ ШИРОКО ОТМЕТИЛИ ПРАЗДНИК «ДЕНЬ ХИМИКА»

**Профессиональный праздник «День химика» в нашей стране и в странах СНГ по традиции отмечается в последнее воскресенье мая. Торжества посвящённые «Дню химика» прошли и в Акционерном обществе «Farg‘onaazot».**

**Как известно, профессия химика играет важную роль в развитии и укреплении экономического потенциала страны. Сегодня без химии невозможно представить себе современную жизнь, а работа в сфере химической промышленности требует от каждого, кто выбрал эту стезю, не дюжих талантов.**

Дальнейшее развитие химической промышленности в нашей стране, стало катализатором реформ, во всех сферах экономики Узбекистана. Необходимо отметить что, в развитии химической промышленности лежит неустанный труд всех представителей химической промышленности. В увеличении промышленного производства, в расширении номенклатуры выпускаемой продукции и как следствие выход на новые рынки сбыта есть немалая доля труда всего коллектива АО «Farg`onaazot».

Кто же такие химики? На этот риторический вопрос можно отметить следующими словами: профессия химика означает больше ответственности, любознательности, инноваций. В результате химических исследований и экспериментов успехи чередуются неудачами. Химики никогда не опускают руки и не отчаиваются. Люди данной профессии эта особая каста, особой пробы люди, они находятся в постоянном движении и в постоянных научных изысканиях. Для того чтобы быть химиком необходимо обладать современными знаниями и научным потенциалом.

Многие другие отрасли экономики также работают за счет продукции, производимой химиками. В частности, используя производимые в химической промышленности минеральные удобрения, наши фермеры получают обильные урожаи и способствуют продовольственной безопасности страны, фармацевты готовят лекарства, а из искусственных волокон ткут различные ткани. Сегодня нет необходимости подчеркивать важность новых изделий на основе полимерных материалов которые к слову также производятся химиками.




Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек Бегиджанов

Работники нашего предприятия в приподнятом настроении встретили профессиональный праздник, «День химика». Приуроченные этому дню торжества прошли в Ферганском областном филиале Государственной филармонии Узбекистана. Перед началом праздничного концерта с приветственным словом к работникам предприятия обратился председатель правления АО «Farg`onaazot» Дилшод Маннонов. В своей речи Д.Э. Маннонов поздравил всех сотрудников с профессиональным праздником, пожелал им семейного счастья, стабильности и здоровья, дальнейших успехов в производстве и развития химической промышленности нашей страны.

По случаю «Дня химика» состоялась церемонии награждения передовиков производства. В торжественной обстановке работникам предприятия были вручены ценные подарки и денежные премии АО «Узкимёсаноат» и АО «Farg`onaazot».

В большой концертной программе подготовленной творческими коллективами Ферганской областной заводчан своими сольными выступлениями порадовали – народный артист Узбекистана Отабек Мухаммадзохид и юморист - мастер слова Абдурахмон Сиддиков. На концерте также прозвучали лучшие хиты узбекской эстрады в исполнении молодых исполнителей. Зажигательные танцы танцевальных коллективов не оставили равнодушными ни кого из зрителей.

Под занавес концертной программы, профсоюзным комитетом общества, были вручены дипломы и ценные подарки призёрам спортивных соревнований по мини-футболу и волейболу, посвященные профессиональному празднику.

**Отабек Бегиджанов**

Kimyogar

MUASSIS:
«Farg`onaazot»
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E’zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,
Farg‘ona shahri,
Sanoat ko‘chasi, 222.
«Farg‘onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

*Gazeta Farg‘ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro‘yxatga olingan.*

**Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.**
Bosmaxona manzili: Marg‘ilon shahar, Turkiston ko‘chasi 236 «B» - uy. Qog‘oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 25.05.2024-yil.
**Ushbu songa mas’ul: E’zozxon ABDULLAYEVA.**
**Rasmlar muallifi: Mirjalol G‘ULOMNAZIROV.**

*Ushbu gazeta «Farg‘onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.*